



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*


2023-yil yanvar-iyun

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

yanvar-iyun, o'sish darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so'm



Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori dinamikasi, so'mda




Ma'lumot uchun: Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga 2023-yil 1-maydan o'zgartirish kiritildi hamda **920,0 ming so'mdan bu ko'rsatgich 980,0 ming so'mga** yetkazildi.

2023-yil yanvar-iyun oylari uchun o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini shakllantirishda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo'jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rinlarda—o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlar, mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.




O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi



2022-2023-yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




2023-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland ko'rsatkichi—bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasi **145,8%** ga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish darajasi **150,0%** ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasiga **155,9%**, savdo sohasi **142,0%**, tashish va saqlash sohasi **141,5%**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi **124,5%**, qurilish sohasi **122,7%**, sanoat sohasi **122,6%**, hamda ta'lim sohasida **116,7%** ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

SANOAT SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



2 924,6

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



3 306,3

Ishlab chiqarish sanoati



2 675,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



5 594,0

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (**5 594,0 ming so'm**), ishlab chiqarish sanoati (**3 306,3 ming so'm**), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (**2 924,6 ming so'm**) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (**2 675,5 ming so'm**) kuzatildi.

Sanoat sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi

- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Ishlab chiqarish sanoati
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish




Hududlar kesimida



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm


—○ o'sish sur'ati




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Payariq tumani (**5 383,3 ming so'm**), Jomboy tumani (**5 067,3 ming so'm**) Samarqand shahri (**4 181,0 ming so'm**), Nurobod tumani (**3 821,4 ming so'm**) hamda Oqdaryo tumani (**3 642,3 ming so'm**) kuzatildi.

● ming so'm ● o'sish sur'ati

QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida



Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Pastdarg'om tumani (4 944,1 ming so'm), Toyloq tumani (4 542,6 ming so'm), hamda Kattaqo'rg'on shahrida (3 000,7 ming so'm) qayd etildi.


O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




SAVDO SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Pastdarg'om tumani (3 725,9 ming so'm), Toyloq tumani (3 619,6 ming so'm), Jomboy tumani (2 656,9 ming so'm), Samarqand shahrida (2 322,8 ming so'm) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Urgut tumanida (2,1 m) Oqdaryo tumanida (192,9%) hamda Kattaqo'rg'on tumanida (192,5%) qayd etildi.


TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm





Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Narpay tumani (8 116,5 ming so'm), Samarqand tumani (5 247,2 ming so'm), Samarqand shahri (3 431,9 ming so'm), Urgut tumani (1 019,0 ming so'm) hamda Pastdarg'om tumani (979,9 ming so'm) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Samarqand shahrida (141,0%), Samarqand tumanida (119,8%), Narpay tumanida (107,9%) qayd etildi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand shahri (**7 391,1 ming so'm**), Nurobod tumani (**4 537,4 ming so'm**) Kattaqo'rg'on tumani (**3 778,7 ming so'm**) hamda Jomboy tumani (**3 563,1 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Samarqand shahrida (**158,0%**), Narpay tumanida (**151,5%**), Kattaqo'rg'on shahrida (**140,8%**), Urgut tumanida (**140,3%**), Pastdarg'om tumanida (**124,7%**) qayd etildi.

BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida (**9 962,2 ming so'm**), Samarqand shahrida (**9 047,1 ming so'm**) Bulung'ur tumanida (**8 663,0 ming so'm**), Urgut tumani (**8 431,8 ming so'm**)da hamda Oqdaryo tumanida (**7 770,3 ming so'm**) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Payariq tumani (**2,2 m**), Pastdarg'om tumani (**2,1 m**), Urgut tumanida (**161,9%**) qayd etildi.


TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand shahri (4 120,7 ming so'm), Urgut tumani (2 954,6 ming so'm), Samarqand tumani (2 872,9 ming so'm), hamda Kattaqo'rg'on shahri (2 845,3 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qo'shrabot tumanida (122,0%), Samarqand tumanida (121,0%), Paxtachi tumanida (118,9%) Samarqand shahrida (118,8%), Urgut tumanida (118,5%) hamda qayd etildi.

SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining faoliyati turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi), Nurobod tumani (3 065,5 ming so'm), Samarqand shahrida (2 978,0 ming so'm), Payariq tumanida (2 858,2 ming so'm), Narpay tumani (2 833,5 ming so'm) hamda Bulung'ur tumanida (2 762,4 ming so'm) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qo'shrabot tumani (145,2%), Narpay tumani (140,7%) hamda Kattaqo'rg'on shahrida (140,4%) qayd etildi.

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



DEMOGRAFIYA VA MEHNAT STATISTIKASI BO'LIMI

Nominal hisoblangan ish haqi—ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.



Tel.: 66 235-72-35